

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH
VAZIRLIGI HUZURIDAGI ICHIMLIK SUVIDAN FOYDALANISHNI NAZORAT
QILISH INSPEKSIYASI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMGA O‘ZGARTIRISH VA
QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA**



LexUZ sharhi

Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 17 apreldagi 214-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan.

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-fevraldagi 108-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi to‘g‘risidagi **nizomga ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari A.J. Ramatov va O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vaziri Sh.S. Xidoyatov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 10-may,
246-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydagi 246-son qaroriga
ILOVA

**Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-fevraldagi 108-son qarori bilan tasdiqlangan
O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik
suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan
o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. 11-bandda:

“a” kichik band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv ta’minoti tashkilotlari tomonidan aholiga yetkazib berilayotgan ichimlik suvining sifati, standartlar va o‘rnatilgan talablarga javob berishi yuzasidan nazorat o‘rnatish”;

“v” kichik band quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“investitsiya dasturlari asosida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv obyektlarida amalga oshirilgan qurilish, rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari natijasida iste’molchilarning suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari bilan qamrab olinishi hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari bilan iste’molchilar o‘rtasida shartnomaviy munosabatlar yo‘lga qo‘yilganligi ustidan nazorat qilish;

kanalizatsiya tarmoqlariga zararli moddalarning oqizilishida belgilangan talablarga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish”.

2. 13-bandda:

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“hisobga olinmagan iste’molchilarni (noqonuniy ulanma) aniqlashni tashkil etish, xususan investitsiya dasturlari asosida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv obyektlarida amalga oshirilgan

qurilish, rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari natijasida iste'molchilarning suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlari bilan qamrab olinishi hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, suv ta'minoti va oqova suv tashkilotlari bilan iste'molchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlar yo'lga qo'yilganligini nazorat qiladi”;

quyidagi mazmundagi to'qqizinchi va o'ninchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, suv ta'minoti tashkilotlari tomonidan aholiga yetkazib berilayotgan ichimlik suvining sifati, standartlar va o'rnatilgan talablarga javob berishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

kanalizatsiya tarmoqlariga ifloslantiruvchi moddalarning normativdan ortiqcha oqizilishida belgilangan talablarga amal qilinishi ustidan nazorat o'rnatadi”;

to'qqizinchi va o'ninchi xatboshilar tegishli ravishda o'n birinchi va o'n ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin.

3. **14-band** quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“kanalizatsiya tarmoqlariga ifloslantiruvchi moddalarning normativdan ortiqcha oqizilishi aniqlanganda, bu borada belgilangan tartibda javobgarlarga nisbatan kompensatsiya to'lovlari hisoblash va undirish”;

sakkizinchi — o'n to'rtinchi xatboshilar tegishli ravishda to'qqizinchi — o'n beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

4. 18-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Inspeksiya boshlig'i uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vaziri taqdimnomasiga asosan Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi”.

5. **19-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. Mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport xizmatlari ko'rsatish shartlariga ko'ra:

Inspeksiya boshlig'i — vazir o'rinbosariga;

Inspeksiya markaziy apparati xodimlari — uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi markaziy apparati xodimlariga;

Hududiy inspeksiyalar bosh inspektorlari — hududiy uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari boshliqlariga;

Hududiy inspeksiya inspektorlari — hududiy uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalarining bo'lim boshliqlariga tenglashtiriladi”.

6. Quyidagi mazmundagi 9¹-bob bilan to'ldirilsin:

“9¹-bob. Inspeksiya faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash

33. Inspeksiya budjet tashkiloti hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan, Uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

34. Uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasidan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-iyundagi 409-son qarori bilan tasdiqlangan Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan Inspeksiya xodimlariga qo'shimcha to'lov va moddiy yordam ko'rsatiladi”.

7. **10-bob** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10-bob. Yakunlovchi qoidalar

35. Inspeksiya va uning hududiy inspeksiyalari o'z vazifalari hamda funksiyalarini amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

36. Inspeksiyaning qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi”.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 09/22/246/0405-son)